



BITIRUVCHI O'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH

Ahmadjanova Kamola Akmaljon qizi

Namangan shahar MMTB ga qarashli

7-maktab amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar va kasb-hunarga yo'naltirishda nimalarga e'tibor berish lozimligi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Kasb-hunar, kasbiy tanlov, tizim, mas'uliyat, mehnat, jamiyat, kasb-hunarga yo'naltirish.

Umumta'lim muassasalari bitiruvchilari o'z iqtidori va qiziqishlariga mos kasbni tanlab olishi, mehnat bozorida munosib o'rnini topishi, kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatga erishishi uchun 2021/2022-o'quv yilidan boshlab kasbga yo'naltirish tizimi joriy etiladi.

Yangi tizim o'quvchilarni maktab davridanoq kasbga bo'lgan qiziqishlarini oshirib o'qitiladi va o'quvchining tanlovi asosida biror-bir kasbga yo'naltiriladi.

Bu quyidagi tarzda amalga oshiriladi:

- 7-sinf dan boshlab o'quvchilar o'rtasida interaktiv so'rovnomalar o'tkazilib, kasb-hunarga bo'lgan qiziqishi aniqlanadi va ularning ma'lumotlar bazasi yaratiladi;

- 7-sinf o'quvchilari uchun har oyda bir marta “Kasblar olamiga sayohat” mavzusida maxsus kurslar, 8-sinf o'quvchilari uchun har chorakda kamida bir marotaba “Mening kelajakdagi kasbim” mavzusida seminar-treninglar olib boriladi;

- 9-sinf o'quvchilarining kasbiy moyilligi bo'yicha o'tkazilgan pedagogik-psixologik tashxislar natijalari asosida kelgusida aniq ishchi kasblar bo'yicha kasb-hunar maktablarida ta'lim olishi mumkin bo'lgan o'quvchilar o'rtasida kasbga yo'naltirish ishlarini olib boriladi.



Tizimning afzalligi — o'quvchilar tizimli ravishda kasb-hunarga yo'naltirilib boriladi, bu orqali ongli ravishda kasb tanlashga erishiladi. Bundan tashqari, “Kasbim – kelajagim” nomli platforma yaratildi. Unda o'quvchilar psixologik testlarni yechishlari va bu orqali qaysi kasb turi o'zlariga mos ekanligini aniqlashga yordam beradi.

Bugungi kunda kasb-hunarga yo'naltirish sohasida mavjud bo'lgan ilmiy xulosalar va tavsiyalar hamda umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish, xususan, kasblar olami bilan tanishtirish usullarini yangilash zarurati yuzaga kelmoqda. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish tizimi kasbiy targ'ibot va tashviqotni o'z ichiga olgan kasbiy ma'rifat (kasbiy axborot); u yoki bu soha, kasbga bo'lgan shaxs qiziqish va qobiliyatlarining birlamchi kasbiy tashxisi, kasb tanlashda mutaxassislar tomonidan individual, guruh yordam ko'rsatishga qaratilgan kasbiy maslahatlar, ko'proq muvofaqiyatga erishishi mumkin bo'lgan kasbni tanlab olishga qaratilgan kasbiy tanlov, ishlab chiqarish amaliyoti jarayonida amalga oshiriluvchi ijtimoiy-kasbiy moslashuv, tanlangan kasbni o'rganish jarayonida burch, mas'uliyat, kasbiy or-nomus hislarini o'quvchilarda shakllantirishga qaratilgan. Undan ko'zlangan maqsad o'quvchilarga kasblar olami, kasblarning belgi va xususiyatlari, kasb klasifikatsiyasi, kasblar professiogrammasi, hududning qaysi kasblarga ehtiyoji borligi to'g'risidagi axborotlarni berishdan iborat bo'lib, ular asosida o'quvchi o'zini qiziqtirgan, jamiyat uchun zarur bo'lgan kasbni tanlaydi.

Kasb-bu jamiyat uchun zarur bo'lgan, ijtimoiy mehnat taqsimoti natijasida chegaralangan, insondan jismoniy, aqliy, ma'naviy kuch talab etuvchi va sarflangan kuch evaziga insonga mavjud bo'lish hamda rivojlanish imkonini beruvchi faoliyat sohasidir, masalan, o'qituvchi, shifokor, injener, dizayner va hokazo.

Barcha kasb-hunarga yo'naltirilgan ishlarni o'rganishda shunday xulosalarni chiqarish mumkin. Ya'ni, kasbiy ma'rifat (kasbiy axborot) o'quvchiga kasblar olamida “kompas” vazifasini bajaradi: aksariyat hollarda o'quvchilar ommaviy va nufuzli bo'lgan kasblarni tanlashga intiladilar; ayrim hollarda o'quvchilarning kasblar haqidagi bilim va tajribalari yuzaki bo'lib, uning yaqqol ko'zga tashlanuvchi, tashqi belgilari hamda xususiyatlariga tayanib qolishadi; kasbiy muvaffaqiyat zahirida mashaqqatli mehnat



yotishi haqidagi ularning bilimlari ko'p hollarda tor va sayoz bo'ladi; o'quvchilarni kasb-hunarga samarali yo'naltirish uchun ular albatta kasblar olami haqida muayyan bir tasavvurlarga ega bo'lishlari, ya'ni shu bugungi kungacha yer yuzida mavjud bo'lgan kasb-hunar va mutaxassisliklar, lavozim o'rtasidagi farqlar, ularning paydo bo'lish hamda yo'qolib ketish sabablarini bilishlari lozim. SHuningdek, to'g'ri kasb tanlashga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, ishlovchi shaxsning jismoniy, aqliy, ruhiy, axloqiy xususiyatlariga bo'lgan kasb talablari, mehnat xususiyatlari va ularning insonga ta'siri, zamonaviy ishlab chiqarish sohalari va turlari, kasb-hunar ta'limi hamda ta'lim muassasalari haqidagi ma'lumotlardan xabardor bo'lishi, har bir o'quvchi o'zining shaxsiy, individual-psixologik-fiziologik xususiyat va sifatlarini yaxshi bilishi hamda ularni hisobga olgan holda o'zi uchun ko'proq mos keluvchi mehnat faoliyati sohaslarini tanlay olish malakasiga ega bo'lishi kerak.

Kasb-hunarga yo'naltirish – umuminsoniy madaniyatni shakllantirish jarayonining tarkibiy qismlaridan biri sifatida yosh avlodning kasbiy tiklanishi, tabiat in'om etgan (tug'ma) qobiliyatlarini rivojlantirish ko'maklashish, insonga kasbiy o'zligini anglashiga yordam beruvchi maxsus chora-tadbirlar majmuasi bo'lib, uning imkoniyat va ehtiyojlarini hisobga olgan holda, bandlik va maqbul ta'lim turini tanlash ishlarida, turli xil malakali kasb mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojlarda jamiyatning g'amxo'rliqi sifatida namoyon bo'ladi.

Kasb-hunarga yo'naltirish quyidagi ikki asosiy vazifani hal qilishga qaratilgan:

- mehnat imkoniyatlarini oqilona taqsimlash va foydalanish hisobiga mamlakatning iqtisodiy salohiyatini mustahkamlash;
- shaxsni ijtimoiy va iqtisodiy himoyalash, chunki o'z qiziqishlari, moyillik va imkoniyatlariga mos kelgan kasbni tanlagan inson ham kasbiy, ham moddiy jihatdan tezroq uni o'zlashtiradi va sezilarli natijalarga erishadi.

Kasb-hunarga yo'naltirish ishining pirovard natijasi ijtimoiy – iqtisodiy omil bo'lib, shaxsga ham, davlatga ham real foyda keltiradi. Yangi O'zbekistonning 2022–2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida umumta'lim maktablari kasb o'rganish



istagidagi bitiruvchilarining davlat tomonidan kamida bir kasbni egallashiga ko‘maklashuvchi tizimni joriy etish vazifasi belgilangan. Ana shu topshiriq ijrosini ta‘minlash maqsadida ko‘rilayotgan chora-tadbirlar o‘quvchilarning muayyan kasb o‘rganib, maxsus malakaga ega, raqobatbardosh kadr bo‘lib yetishishiga xizmat qiladi. Zero, iqtisodiyot barqarorligi, barcha sohalarda rivojlangan davlatlar bilan bellasha olish ham mehnat bozoridagi kadrlarning salohiyatiga bog‘liq. Bunday kadrlar esa, eng avvalo, maktabda shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. 2019-yilning 29-aprel.
2. A.Zokirov, K.Farfieva, G.Burxonova, S.Alimxodjaeva. Kasb-hunarga yo‘naltirish jarayonida o‘quvchi shaxsini o‘rganish metodikalari.- T: 2006 yil
3. V. Karimova “Psixologiya” Toshkent. 2002 yil
4. M.Abdullajonova, M.Isoqova, M.Zokirova, S.Isroiljonova Ijtimoiy psixoloik trening prktikum. – Farg‘ona: “Farg‘ona” nashriyoti, 2003 yil
5. Y.Asadov. “O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishda qo‘llaniladigan psixologik-pedagogik tashxis metodikalari”. Toshkent. 2010 yil
6. <http://www.edu.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi portali.
7. <http://www.uzedu.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi portali
8. [http:// www.rtm.uz](http://www.rtm.uz) – Respublika ta’lim markazi sayti